«Uzbekistan Airports» AJ
Kuzatuv kengashining
2023-yil 4-oktabr
3/2023-son bayonnomasi bilan
«TASDIQLANGAN»

«UZBEKISTAN AIRPORTS» AJ
KUZATUV KENGASHI HUZURIDAGI
TAYINLASH VA MUKOFOTLASH QO‘MITASI TO‘G‘RISIDA
NIZOM

Toshkent – 2023-yil

I. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Tayinlash va mukofotlash qo‘mitasi Nizomi (keyingi o‘rinlarda – Nizom) «Uzbekistan Airports» AJ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunchilik, «Uzbekistan Airports» AJ Ustavi (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat), Kuzatuv kengashi Nizomi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan.

1.2. Ushbu Nizom Kuzatuv kengashi huzuridagi Kadrlar va mukofotlash qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita) maqomi, vazifalari, funksiyalari, tarkibi va saylanish tartibini, shuningdek, Qo‘mita faoliyatini tartibga soladi.

1.3. Qo‘mita Kuzatuv kengashi tomonidan saylanadi va kadrlar siyosati hamda motivatsiya tizimi bo‘yicha Kuzatuv kengashining vakolatiga kiruvchi masalalarni oldindan ko‘rib chiqish uchun maslahatlashuv organi sifatida tuziladi.

1.4. Qo‘mita Kuzatuv kengashiga hisobdor va uning nazorati ostida ishlaydi.

1.5. Qo‘mita qarorlari tavsiya xususiyatiga ega.

II. Qo‘mitaning maqsad va vazifalari

2.1. Qo‘mitaning asosiy vazifalari:

2.1.1. Kuzatuv kengashi qarorlari va Jamiyat ichki hujjatlari bajarilishini kadrlar siyosati va tashkilot rivojlanishi bo‘yicha nazorat qilish.

2.1.2. Jamiyatda samarali biznes jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirish.

2.1.3. Boshqaruv organlari a’zolari va boshqa Jamiyat mansabdor shaxslariga nomzodlar bo‘yicha takliflar (tavsiyalar) shakllantirish, ularning saylanishi yoki tayinlanishi Jamiyat umumiy aksiyadorlar yig‘ilishi yoki Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

2.1.4. Jamiyat raisi va Boshqaruv a’zolari hamda boshqa mansabdor shaxslar uchun mukofotlash tizimi bo‘yicha takliflar (tavsiyalar) shakllantirish.

2.1.5. Jamiyat raisi, Boshqaruv a’zolari va tuzilma bo‘linmalari rahbarlari bilan tuziladigan shartnomalar shartlarini ishlab chiqish.

2.1.6. Jamiyat raisi, Boshqaruv a’zolari va boshqa mansabdor shaxslar uchun yillik mukofotlash mezonlarini ishlab chiqish.

2.1.7. Yuqorida ko‘rsatilgan masalalar bilan bog‘liq boshqa masalalar (Kuzatuv kengashining boshqa qo‘mitalari vakolatiga kiruvchi masalalar bundan mustasno);

Kuzatuv kengashi topshirig‘iga binoan boshqa masalalar.

III. Qo‘mitaning huquq va majburiyatlari

3.1. Qo‘mita va uning a’zolariga quyidagi huquqlar berilgan:

3.1.1. Kuzatuv kengashi qarorlari va ko‘rsatmalarining bajarilishini nazorat qilish va tekshirish.

3.1.2. Boshqaruv a’zolari va bo‘linmalar rahbarlaridan faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni so‘rash va olish.

3.1.3. Qo‘mita byudjeti doirasida tashqi ekspertlar va konsultantlarning xizmatlaridan foydalanish.

3.1.4. Qo‘mita majlislariga uchinchi shaxslarni taklif qilish.

3.1.5. Ushbu Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha Kuzatuv kengashiga takliflar berish.

3.1.6. Qo‘mitaning vakolatini amalga oshirish uchun zarur boshqa huquqlar.

3.2. Qo‘mita va uning a’zolariga quyidagi majburiyatlar yuklatilgan:

3.2.1. Qo‘mita ishida va muntazam o‘tkaziladigan barcha majlislarda ishtirok etish.

3.2.2. Etika, korrupsiyaga qarshi kurash va Jamiyat rivojlanishi uchun strategik

ahamiyatga ega boshqa sohalardagi natijalarni kuzatib borish.

3.2.3. Xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ma’lum bo‘lgan barcha ma’lumotlarni maxfiy saqlash.

3.2.4. Mustaqil a’zo maqomi o‘zgarganda yoki Qo‘mita qarorlari bilan bog‘liq manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda Kuzatuv kengashini xabardor qilish.

IV. Qo‘mita tarkibi va shakllantirish tartibi

4.1. Qo‘mita 3 (uch) a’zodan iborat bo‘lib, Kuzatuv kengashi a’zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan saylanadi. Qo‘mitaga faqat Kuzatuv kengashi a’zolari saylanishi mumkin.

4.2. Qo‘mita a’zolarining vakolat muddati Kuzatuv kengashi a’zosi sifatidagi vakolat muddati bilan cheklanadi. Har qanday a’zoning (yoki barcha a’zolar) vakolati Kuzatuv kengashi qarori bilan muddatidan oldin tugatilishi mumkin.

4.3. Qo‘mita a’zolari o‘rta va yuqori boshqaruv xodimlari bilan ishlash bo‘yicha zarur bilim va tajribaga ega bo‘lishi kerak.

4.4. Qo‘mita a’zolari cheklanmagan miqdorda qayta saylanishi mumkin.

4.5. Qo‘mita tarkibidagi o‘zgarishlar Kuzatuv kengashi tomonidan istalgan vaqtda kiritilishi mumkin.

4.6. Qo‘mita a’zolari vakolatlaridan voz kechmoqchi bo‘lsa, Kuzatuv kengashi raisiga ariza va Qo‘mita raisiga hisobot taqdim etish orqali buni amalga oshirishi mumkin.

4.7. Qo‘mita a’zosining ixtiyoriy vakolatdan voz kechishi holatida, Kuzatuv kengashi eng yaqin majlisda, ariza topshirilgan sanadan kechiktirmay 1 oy ichida yangi a’zo saylaydi. Shu vaqtgacha mavjud a’zo o‘z vazifalarini to‘liq bajarishda davom etadi.

4.8. Qo‘mita a’zosi vakolati Kuzatuv kengashi tomonidan tugatilsa, yangi a’zo vakolati tugatilgandan so‘ng 2 hafta ichida saylanadi.

4.9. Yangi a’zo saylangach, Qo‘mita raisi 1 hafta ichida yangi a’zo bilan uchrashib, uning Qo‘mita vakolatlari va faoliyati bilan tanishtiradi.

4.10. Qo‘mita a’zolariga o‘z vazifalarini bajarish bilan bog‘liq mukofotlar to‘lanadi va xarajatlar qoplanadi, miqdor va tartib Kuzatuv kengashi tavsiyasi va Jamiyat umumiy aksiyadorlar yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

4.11. Qo‘mita raisi Kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadi va Qo‘mita ishini tashkil etadi.

4.12. Qo‘mita raisi vazifalari:

- qo‘mita faoliyatini tashkil etadi;
- qo‘mita majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;
- qo‘mita a’zolari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
- hozirgi davr ish rejalarini, Kuzatuv kengashi majlis rejasi hisobga olingan holda ishlab chiqadi;
- qo‘mita majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi va majlis protokolini yuritadi;
- qo‘mita faoliyati bo‘yicha Kuzatuv kengashiga hisobot beradi;
- jamiyat ichki hujjatlari va ushbu Nizomga muvofiq boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

4.13. Qo‘mita raisi Qo‘mita tavsiyalarini Kuzatuv kengashi a’zolariga o‘z vaqtida yetkazish va tavsiyalar bajarilishini monitoring qilish uchun javobgardir.

4.14. Qo‘mita raisi vaqtincha yo‘qligida uning vazifalarini Qo‘mitaning bir a’zosi bajaradi.

4.15. Qo‘mita ishini tashkil etish uchun Kuzatuv kengashi Qo‘mita kotibini Jamiyat xodimlari yoki Qo‘mita a’zolari orasidan tayinlaydi.

4.16. Agar Kuzatuv kengashi Qo‘mita kotibini tayinlamasa yoki ilgari tayinlangan kotib turli sabablarga ko‘ra vazifasini bajara olmasa, Qo‘mita raisi kotibni Jamiyat xodimlari yoki Qo‘mita a’zolari orasidan tayinlaydi.

4.17. Qo‘mita kotibi vazifalari:

- qo‘mita majlisi protokolini yuritadi va rasmiylashtiradi;
- qo‘mita majlislariga tayyorgarlik ko‘radi (majlisga materiallarni yig‘adi, tizimlashtiradi, a’zolarga va taklif qilingan shaxslarga xabarnoma yuboradi, kun tartibi, kun tartibi bo‘yicha ma’lumotlar, Qo‘mita qaror loyihalarini tayyorlaydi va barcha tegishli materiallarni saqlaydi);
- qo‘mitaga tashkiliy va axborot yordamini ko‘rsatadi, a’zolar va Kuzatuv kengashi hamda Jamiyat mansabdor shaxslari bilan o‘zaro ishlarni muvofiqlashtiradi.

V. Qo‘mita ish tartibi

5.1. Qo‘mita majlislari Qo‘mita tomonidan tasdiqlangan rejaga muvofiq o‘tkaziladi, lekin Qo‘mita a’zolari vakolat muddati davomida kamida 4 (to‘rtta) majlis bo‘lishi kerak. Zarurat tug‘ilganda qo‘shimcha majlislar chaqirilishi mumkin.

5.2. Qo‘mita majlislari videokonferensiya, majlis yoki masofaviy ovoz berish shaklida o‘tkazilishi mumkin. Qo‘mita faqat a’zolar majlisida ko‘rib chiqiladigan masalalar ro‘yxatini tasdiqlashi mumkin. Bu qaror barcha amaldagi a’zolar tomonidan yakdillik bilan qabul qilinadi.

5.3. Qo‘mita majlislarini Qo‘mita raisi o‘z tashabbusi bilan, a’zo talabi yoki Kuzatuv kengashi qaroriga binoan chaqiradi. Qo‘mita kotibi Qo‘mita raisi bilan kelishgan holda, Boshqaruv a’zolari so‘rovi bo‘yicha majlis chaqirishi mumkin. Favqulodda majlis chaqirish talabi kelib tushgan taqdirda, Qo‘mita raisi 5 ish kuni ichida favqulodda majlis chaqirishi shart.

Majlis protokoli barcha ishtirok etgan a’zolar tomonidan imzolanadi.

5.4. Qo‘mita majlislariga tayyorgarlik Qo‘mita kotibi tomonidan Qo‘mita raisi nazorati ostida amalga oshiriladi. Kotib barcha a’zolarga majlis sanasi va joyini, kun tartibi bo‘yicha zarur materiallarni kamida 5 ish kuni oldin yetkazadi. Xabarnoma a’zolarga qulay shaklda – telefon, faks, oddiy yoki elektron pochta orqali yuborilishi mumkin.

5.5. Qo‘mita majlisi uchun kvorum – tarkibining 2/3 qismi.

5.6. Har bir a’zoga masalalarni hal qilishda bitta ovoz berish huquqi berilgan. Ovoz berish huquqini boshqa shaxslarga, jumladan boshqa a’zolarga berish mumkin emas. Qo‘mita qarorlari majlisda ishtirok etgan a’zolarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, Nizomda belgilangan holatlar bundan mustasno.

5.7. Agar ovozlar teng bo‘lsa, majlis raisi ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

5.8. Qo‘mita a’zosi majlisda ishtirok eta olmasa, o‘z fikrini yozma shaklda yoki umumqabul qilingan elektron hujjat aylanishi tizimi orqali bildirishi mumkin. Ushbu fikr majlisda ko‘rib chiqiladi va protokolga ilova qilinadi.

5.9. Qo‘mita ko‘rib chiqadigan masalalar xususiyatini hisobga olib, Qo‘mita a’zosi bo‘lmagan shaxslar faqat Qo‘mita qarori yoki rais taklifi bilan majlislarda ishtirok etadi.

Majlislarda Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a’zolari hamda Jamiyat boshqa mansabdor shaxslari ishtirok etishi mumkin. Zarurat bo‘lsa, Qo‘mita ishiga tashqi mutaxassislar va konsultantlar vaqtinchalik yoki doimiy jalb qilinishi mumkin.

Taklif qilingan shaxslar Qo‘mita vakolatiga kiruvchi masalalarda kun tartibi bo‘yicha ovoz berish huquqiga ega emas.

VI. Jamiyat organlari va boshqa shaxslar bilan o‘zaro aloqalar

6.1. Qo‘mita a’zolari Qo‘mita ishini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarga kirish huquqiga ega bo‘lishi kerak. Shu maqsadda Jamiyat ijroiya organlari a’zolari, Kuzatuv kengashi kotibi, tuzilmaviy bo‘linmalar rahbarlari hamda boshqa xodimlar Qo‘mita talabiga binoan Qo‘mita faoliyati bo‘yicha to‘liq va haqqoniy ma’lumot hamda hujjatlarni taqdim etishga majburdir.

Ma’lumot va hujjatlar so‘rovi Qo‘mita raisi imzosi bilan yozma shaklda rasmiylashtiriladi. So‘ralgan ma’lumot va hujjatlar Qo‘mitaga Qo‘mita kotibi orqali taqdim etiladi.

6.2. Zarurat tug‘ilganda, Qo‘mita faoliyati doirasidagi alohida masalalarni ko‘rib chiqish uchun zarur professional bilimga ega mutaxassislar va ekspertlar jalb qilinishi mumkin. Mutaxassis va ekspertlarni jalb qilish tartibi va shartlari Jamiyat bilan ushbu shaxslar o‘rtasida tuziladigan shartnomada belgilanishi lozim.

VII. Qo‘mita budjeti

7.1. Qo‘mita faoliyatini ta’minlash maqsadida, Qo‘mita xarajatlari uchun alohida band ajratilishi mumkin. Ushbu band, konsultantlarni jalb qilish va ularning xizmat haqlarini to‘lash ehtiyoji inobatga olingan holda, Jamiyat umumiy byudjeti xarajatlar qismi shakllantiriladi va uning miqdori Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

7.2. Zarurat bo‘lsa, Qo‘mita tomonidan keyingi yil byudjeti bo‘yicha takliflar Kuzatuv kengashiga oldingi yil 4-choragida, Jamiyat umumiy byudjeti shakllantirish jarayonida taqdim etiladi.

7.3. Konsultantlarni jalb qilish va ularning xizmatlari uchun to‘lov Jamiyat Boshqaruv raisi tomonidan Kuzatuv kengashi maxsus qarori asosida amalga oshiriladi, Qo‘mita byudjetida nazarda tutilmagan qo‘shimcha mablag‘ hisobidan. Ushbu masala Kuzatuv kengashi ko‘rib chiqishiga Qo‘mita raisining tashabbusi bilan kiritiladi.

7.4. Tegishli yil yakunida, Kuzatuv kengashi qaroriga binoan, Qo‘mita raisi konsultantlar tomonidan tayyorlangan, konsultantlarni jalb qilishga sarflangan mablag‘lar bo‘yicha hisobotni Kuzatuv kengashiga taqdim etadi, unda xizmatlarning batafsil tavsifi va xulosa hamda tavsiyalar ilova qilinadi.

VIII. Ma’lumot maxfiyligi

8.1. Qo‘mita a’zolari va Qo‘mita kotibi Qo‘mita faoliyati davomida ma’lum bo‘lgan ichki va boshqa maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilmasliklari shart. Jamiyat ichki ma’lumotlariga egalik qiluvchi shaxs yoki Qo‘mita majlislarida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslar, agar ular Jamiyatning maxfiylik majburiyatlariga bog‘lanmagan bo‘lsa, Jamiyat bilan maxfiy ma’lumotni oshkor qilmaslik bo‘yicha oldindan shartnoma imzolashlari kerak.

IX. Qo‘mita a’zolarining javobgarligi

9.1. Qo‘mita a’zolari o‘z huquq va majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko‘zlab harakat qilishi va belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi kerak.

9.2. Agar a’zolar ovoz berishda ishtirok etmagan yoki qarorga qarshi ovoz bergan bo‘lsa va qaror Jamiyatga zarar yetkazgan bo‘lsa, ular javobgar emas.

X. Yakuniy qoidalar

10.1. Ushbu Nizom Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan kuchga kiradi.

10.2. Ushbu Nizom, shuningdek, unga kiritiladigan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflarni Kuzatuv kengashi raisi va Qo‘mita a’zolari taqdim qilishi mumkin.